

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA: PEDAGOGIK JARAYONDAGI DOLZARB MASALALAR VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik ta'lim va tarbiyaning dolzarbligi, uning shaxs va jamiyat rivojida tutgan o'rni, pedagogik jarayondagi ahamiyati hamda istiqbollari yoritilgan. Ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish, yoshlar ongida mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish yo'llari ilmiy-pedagogik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, pedagogik jarayon.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В данной статье освещается актуальность экологического образования и воспитания, его роль в развитии личности и общества, значение и перспективы в педагогическом процессе. Научно-педагогически проанализированы пути формирования экологического сознания и экологической культуры, развития ответственного отношения в сознании молодежи.

Ключевые слова: экологическое воспитание, экологическое воспитание, экологическое сознание, экологическая культура, устойчивое развитие, педагогический процесс.

ENVIRONMENTAL EDUCATION: CURRENT ISSUES AND PROSPECTS IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

Abstract: This article highlights the relevance of environmental education and upbringing, its role in the development of personality and society, its importance and prospects in the pedagogical process. The ways of formation of ecological consciousness and ecological culture, the development of responsible attitude in the minds of young people are scientifically and pedagogically analyzed.

Keywords: ecological education, ecological education, ecological consciousness, ecological culture, sustainable development, pedagogical process.

KIRISH. XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu – ekologik muammolardir. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning cheksiz sarflanishi, iqlim o'zgarishlari va biologik xilma-xillikning kamayib borishi global xavf sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday sharoitda ekologik ta'lim va tarbiyaning mazmunini boyitish, uni ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qarash pedagogika fanining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda uzluksiz ekologik ta'lim tizimini samarali yo'lga qo'yish orqali aholining, jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish mumkin. Gap shundaki, aholining, birinchi navbatda, uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchi va talaba yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirmasdan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasiga sarflanayotgan har qancha mablag'lar bilan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yosh avlod qalbida Ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini o'z vaqtida tarbiyalashimiz lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XX asrning ikkinchi yarmida inson ongi va tafakkurining mahsuli texnik yangiliklarning rivoji, industrial jamiyatga o'tish taraqqiyot mezonini belgilab berish bilan bir vaqtda insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar yuzaga keldiki, ular ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Buning natijasida mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy xarakterga ega bo'lgan turli xil ekologik muammolar yuzaga kelib, insoniyat sivilizatsiyasi davomiyligiga tahdidi ortib bormoqda. Ayni vaqtda dunyo aholisining aksariyati ekotizimni buzilishi va atrof-muhitni ifloslanishi kabi ekologik muammolar insoniyat uchun katta xavf ekanligini ta'kidlamodalar.

Jamiyat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Kishilarning iqtisodiy faoliyati ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu munosabatlar kishilarning mehnat qilish jarayonidagi o'zaro munosabatlaridan tashqari tabiatga, uning resurslariga bo'lgan munosabatlardan ham iborat bo'ladi. Bu munosabatlar negizida paydo bo'lgan tejamkorlik, asrab-avaylash, nobud qilmaslik yoki yerning sifatini yaxshilash, uning hosildorligini o'ttirishga harakat qilish kabi holatlar tufayli ekologik munosabatlar ekologik madaniyatga aylanib boradi.

Ekologik tarbiya shunchaki tabiatni asrashni targ'ib etish emas, balki insonda ekologik ong, ekologik madaniyat va mas'uliyatli hayot tarzi ni shakllantirishdir. Shaxsning ekologik madaniyati jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishning muhim kafolatidir.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichidan pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi.



“Ekologik ta'lim asosi inson, jamiyat a'zolarini tabiat va uning boyliklarini saqlash, tejamkorlik bilan foydalanishda to'g'ri va oqilona yo'l tutishi, amaliy ishlarni muhit muammolarini yechishga bag'ishlashi, shaxsning ekologik ta'limoti, tarbiyasi va madaniyatiga bogilqdir”[1, 410].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekologik tarbiyada o'quvchilarni o'z maktabini; yashaydigan muhitishahar va qishloq ko'chalarini o'qalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega. "Ekologik tarbiya-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligini va mas'uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur"[2, 154].

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi insonning ekologik ongini rivojlantirishdir. Bu, o'z navbatida, tabiat bilan hissiy munosabatni shakllantirishni talab qiladi. Inson tabiatni nafaqat manba sifatida, balki uning go'zalligi, murakkabligi va ahamiyatini tushunishi kerak. Emotsional munosabatlar orqali odamlarda tabiatga muhabbat, mas'uliyat hissi shakllanadi. Ekologik tarbiya jarayonida aqliy rivojlanish ham muhim ahamiyatga ega. Odamlar ekologik muammolarni tushunish va hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlarni olishlari kerak. Bu bilimlar ekologik tizimlar, ularning o'zaro bog'liqligi va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'siri haqida bo'lishi mumkin.

Intellektual rivojlanish orqali odamlar atrof-muhit muammolarini tahlil qilish, baholash va yechimlarni taklif qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Ekologik tarbiyaning psixologik xususiyatlari ijtimoiy-madaniy sharoitda ham ifodalanadi. Har bir jamiyatning ekologik muammolarga nisbatan o'ziga xos munosabati, an'analari va qadriyatlari mavjud. Ekologik ta'lim jarayonida ana shu ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Insonlar o'z jamiyatidagi ekologik muammolarga munosabatni o'rganishi va shunga qarab o'z fikrlarini shakllantirishi kerak. Ekologik ta'limning psixologik xususiyatlaridan biri motivatsiya va faollikdir.

Atrof-muhit muammolariga odamlar qiziqish va ishtiyoq bilan qarashlari kerak. Bu esa, o'z navbatida, ularni tabiatni muhofaza qilish, ekologik loyihalarda ishtirok etish kabi ekologik faoliyatga jalb qiladi. Motivatsiya odamlarning ekologik muammolarga munosabatini kuchaytiradi. Ekologik ta'limning muhim psixologik xususiyatlaridan biri ekologik javobgarlikni his qilishdir. Odamlar o'z harakatlarining atrof-muhitga ta'sirini tushunishlari va bu ta'sirni kamaytirish uchun javobgar bo'lishlari kerak. Ekologik mas'uliyat hissi odamlarni tabiatni muhofaza qilishga, resurslardan oqilona foydalanishga, ekologik muammolarni hal qilishga undaydi.

Pedagogika fanida ekologik tarbiya – shaxsda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli faoliyat sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Ekologik bilim – o'quvchilarga atrof-muhit holati, ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ilmiy asoslangan bilim berish.
2. Ekologik ong – tabiatga nisbatan mas'uliyatli qarash, inson faoliyatining ekologik oqibatlarini tushunish.
3. Ekologik madaniyat – kundalik hayotda ekologik tamoyillarga amal qilish, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, tabiatga zarar keltirmaslik.
4. Amaliy ko'nikmalar – ekologik loyihalarda ishtirok etish, ekologik aksiyalarda qatnashish, maktab va mahallalarda yashil hududlarni barpo etish.

Ekologik tarbiyaning bugungi kun talablari.

Bugungi globallashtirish sharoitida ekologik tarbiya jarayonida quyidagi talablar qo'yilmoqda:

- Integratsiya – ekologik tarbiya barcha fanlar mazmuniga singdirilishi kerak.
- Innovatsion metodlar – ekologik ta'limni faqat nazariy ma'ruza bilan cheklash samarali emas.
- Amaliyotga yo'naltirilganlik – o'quvchilar tabiat qo'ynida amaliy mashg'ulotlar o'tkazishi lozim.
- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchida ekologik mas'uliyatni shakllantirish.

- Barqaror rivojlanish g'oyalari – ekologik tarbiya jarayonida iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish.

Ekologik ta'lim-tarbiya zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni barqaror asosda shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda global ekologik muammolarning chuqurlashuvi, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish va iqlim o'zgarishlari sharoitida ekologik madaniyatni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'lim va tarbiya yosh avlod ongida tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ekologik tafakkurni rivojlantirish va barqaror rivojlanish g'oyalarini singdirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, interfaol o'qitish uslublariidan foydalanish hamda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash zarur. Ekologik loyihalar, innovatsion laboratoriya mashg'ulotlari, "yashil maktab" va "eko-klub" kabi tashabbuslar orqali o'quvchilarda ekologik javobgarlik va fuqarolik ongini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish, o'quv dasturlarini yangicha mazmun bilan boyitish hamda xalqaro ekologik standartlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ekologik ta'lim va tarbiya – zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi, barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Shaxsda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat ta'lim muassasalari, balki butun jamiyatning mas'uliyatidir. Pedagogik jarayon orqali yoshlar ongida ekologik mas'uliyat, tabiatga mehr-muhabbat va insoniy qadriyatlar uyg'unlashgan holda shakllansa, bu kelajak avlod uchun munosib ekologik muhit yaratishning muhim kafolati bo'ladi.

Ekologik ta'lim-tarbiya nafaqat o'quv jarayonining pedagogik vazifasi, balki jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun strategik zaruratdir. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va davlat siyosati uyg'un holda amalga oshirilsa, kelajak avlod ekologik ongli, mas'uliyatli va barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq shaxslar sifatida kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2005-yil.
2. A.S.To'xtayev. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1998.
3. Қўйлиев Т. Экологик маданиятнинг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари. – Т.:ТАҚИ, 2007.
4. Pulatova, N. (2022). The Essence and Theoretical and Methodological Bases Of Ethnoecological Culture. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(1), 33-35.
5. Пўлатова, Н. (2017). АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ ФАОЛИЯТИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 13-13.